

O'ZBEKISTONDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING STRATEGIK IMKONIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Rustamov Shoxrux Xusanbayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich magistranti

Shohruhrustamov1999@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19947635>

Annotatsiya: Aholi farovonligini oshirish innovatsion iqtisodiyot, inson kapitali, raqamli xizmatlar va samarali ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida tahlil qilinadi. O'zbekistonda 2024-yilda real YAIM o'sishi 6,5 foizni tashkil etgani hamda 2025-yilda mamlakat Global Innovation Index reytingida 79-o'ringa ko'tarilgani innovatsion rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar shakllanayotganini ko'rsatadi. Farovonlikni barqaror oshirish uchun texnologik yangilanish, bandlikni kengaytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va hududiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: aholi farovonligi, innovatsion yondashuv, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, bandlik, kichik biznes, ijtimoiy siyosat, strategik mexanizmlar.

Аннотация. Повышение благосостояния населения рассматривается как процесс, тесно связанный с инновационной экономикой, человеческим капиталом, цифровыми услугами и эффективной социальной политикой. Рост реального ВВП Узбекистана на 6,5 процента в 2024 году и повышение страны до 79-го места в Глобальном инновационном индексе 2025 года свидетельствуют о формировании важных возможностей для инновационного развития. Для устойчивого повышения благосостояния населения приоритетное значение имеют технологическое обновление, расширение занятости, поддержка малого бизнеса и сокращение региональных различий.

Ключевые слова: благосостояние населения, инновационный подход, цифровая экономика, человеческий капитал, занятость, малый бизнес, социальная политика, стратегические механизмы.

Abstract. Improving population welfare is analyzed as a process closely linked to the innovative economy, human capital, digital services, and effective social policy. Uzbekistan's real GDP growth of 6.5 percent in 2024 and its rise to 79th place in the Global Innovation Index 2025 indicate the formation of important opportunities for innovation-driven development. Sustainable improvement of welfare requires technological modernization, employment expansion, support for small business, and reduction of regional disparities as key strategic priorities.

Keywords: population welfare, innovative approach, digital economy, human capital, employment, small business, social policy, strategic mechanisms.

Kirish

O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish bugungi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Farovonlik darajasi nafaqat aholining daromadlari, balki bandlik, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash, raqamli xizmatlardan foydalanish va hududlar o'rtasidagi imkoniyatlar tengligi bilan ham belgilanadi. So'nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror saqlanmoqda: Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra,

2024-yilda O'zbekistonda real YAIM o'sishi 6,5 foizni tashkil etgan, 2025-yil birinchi choragida esa iqtisodiy faollik 6,8 foiz darajasida davom etgan.

Innovatsion yondashuvlar farovonlikni oshirishda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, yangi texnologiyalar, inson kapitali va ilmiy salohiyat aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Aholi farovonligini oshirish masalasi iqtisodiy o'sish, innovatsiya, inson kapitali, ijtimoiy adolat va raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Amartya Sen farovonlikni faqat daromadlar miqdori bilan emas, balki insonning real imkoniyatlari, tanlov erkinligi va ijtimoiy faolligi orqali baholash zarurligini asoslagan¹. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida aholi farovonligini ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq holda tahlil qilishga asos bo'ladi.

J. Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan bo'lsa², P. Romer bilim va yangi g'oyalarni uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida izohlaydi³. M. Mazzucato esa davlatning innovatsion rivojlanishdagi faol rolini ta'kidlab, davlatni faqat tartibga soluvchi emas, balki innovatsion jarayonlarni boshlovchi va qo'llab-quvvatlovchi institut sifatida baholaydi⁴. Mazkur nazariy qarashlar O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, kichik biznes va inson kapitalini rivojlantirish orqali farovonlikni oshirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Asosiy qism

O'zbekistonda aholi farovonligini oshirishda innovatsion yondashuvlar faqat texnologik yangiliklar majmui emas, balki inson kapitalini rivojlantirish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va davlatning faol strategik ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida baholanishi lozim.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda real YAIM o'sishi 2024-yilda 6,5 foizni tashkil etgan, 2025-yil birinchi choragida esa iqtisodiy faollik 6,8 foiz darajasida saqlangan⁵. Shu bilan birga, 2025-yil aprel oyiga kelib inflyatsiya 10,1 foiz atrofida bo'lgan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda real YAIM 2025-yilda 7,7 foizga o'sgan, 2024-yilda bu ko'rsatkich 6,7 foiz bo'lgan. Xususi iste'mol 9,2 foizga, investitsiyalar esa 10,5 foizga oshgan. Eng muhim jihati, milliy kambag'allik darajasi 2024-yildagi 8,9 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygan, Jini koeffitsiyenti esa 34,6 dan 32,7 ga yaxshilangan⁶.

¹ Sen A. Development as Freedom. - New York: Alfred A. Knopf, 1999. - 366 p.


² Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. - Cambridge: Harvard University Press, 1934. - 255 p.

³ Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. - Chicago: University of Chicago Press, 1990. - Vol. 98, №5. - P. S71-S102.

⁴ Mazzucato M. The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. - London: Anthem Press, 2013. - 266 p.

⁵ International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation. - Washington: IMF, 2025.


⁶ World Bank. Uzbekistan Country Overview. - Washington: World Bank Group, 2026.



1-rasm. Aholi daromadlari manbalari 2025-yil (foizlarda)⁷

2025-yil yanvar-dekabr oylarida aholining jami daromadlari 1 134,3 trln so‘mga yetgan va real o‘shish 109,2 foizni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga umumiy daromad 29,9 mln so‘m bo‘lib, real o‘shish 107,2 foizga teng bo‘lgan. Daromadlar tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar 60,4 foizni, transfert daromadlari 29,6 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 2025-yilda kichik biznesdan olingan daromadlarning jami aholi daromadlaridagi ulushi 58,0 foizni tashkil qilgan.

Bizning nazarimizda, O‘zbekistonda aholi farovonligining oshishi makroiqtisodiy o‘shish, ish haqi va tadbirkorlik daromadlari, shuningdek, transfert to‘lovlari bilan bevosita bog‘liq. Biroq uzoq muddatli farovonlikni ta‘minlash uchun faqat daromadlarni oshirish yetarli emas; kichik biznes, o‘zini o‘zi band qilish, innovatsion bandlik va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali aholi daromadlarining barqaror manbalarini kengaytirish zarur.



2-rasm. O‘zbekistonning global innovation indexdagi yuksalishi va 2025-yildagi ko‘rsatkichlari⁸

⁷ Manba: Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi/

⁸ Manba: WIPO GII 2024 hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Yuqoridagi rasmdan xulosa shuki, O‘zbekiston 2024-yilda Global Innovation Index reytingida 133 ta iqtisodiyot orasida 83-o‘rinni egallagan. Bu natija 2013-yildagi 133-o‘ringa nisbatan sezilarli siljish hisoblanadi. 2025-yilda esa O‘zbekiston 139 iqtisodiyot orasida 79-o‘ringa ko‘tarilib, ilk bor top-80 mamlakatlar qatoriga kirgan. Mamlakat mehnat unumdorligi o‘shishi bo‘yicha 6-o‘rin, fan va muhandislik bitiruvchilari bo‘yicha 13-o‘rin, biznes muhiti bo‘yicha 9-o‘rin, ta‘lim xarajatlari bo‘yicha 24-o‘rinni egallagan.

BMTTDning 2025-yildagi “Digital Economy of Uzbekistan” hisobotida O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti, startap ekotizimi va sun‘iy intellektni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Hisobotda AKT sektori o‘shishi, eksport salohiyati, startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, milliy sun‘iy intellekt strategiyasi va raqamli iqtisodiyotni inklyuziv rivojlantirish masalalari asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan⁹.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan. Unda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligiga keng joriy etish ko‘zda tutilgan. Rasmiy portalda IT Park rezidentlari soni 2 800 dan oshgani, xorijiy kompaniyalar soni 752 taga yetgani, sohada qariyb 40 ming yosh yuqori daromad olayotgani, soha eksporti so‘nggi besh yilda 170 mln dollardan qariyb 1 mlrd dollargacha oshgani qayd etilgan.

Mazkur ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston innovatsion rivojlanish bosqichiga izchil kirib bormoqda. Biroq innovatsion salohiyatning aholi farovonligiga real ta‘siri raqamli xizmatlarning barcha hududlarga yetib borishi, aholining raqamli savodxonligi oshishi, startaplar va kichik biznesning daromad manbaiga aylanishi bilan belgilanadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida aholi farovonligini ta‘minlash barqaror iqtisodiy o‘shish bilan bog‘langan. Strategiyaning asosiy g‘oyalardan biri barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishdir. Strategiyada 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish, YAIM hajmini 160 mlrd dollarga, aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazish maqsad qilingan¹⁰.

Strategiyada sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samarali boshqarish, raqamlashtirish orqali soliq ma‘murchiligi samaradorligini oshirish kabi mexanizmlar belgilangan.

Asosiy strategik mexanizmlar:

Raqamli inklyuziya – qishloq hududlarida internet, elektron xizmatlar va raqamli savodxonlikni kengaytirish.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish – chunki 2025-yilda kichik biznes daromadlari aholi jami daromadlarining 58,0 foizini tashkil etgan.

Kasbiy ta‘lim va qayta tayyorlash – yangi texnologiyalar sharoitida mehnat bozori talablariga mos ko‘nikmalarni shakllantirish.

Davlat-xususiy sheriklik – infratuzilma, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va raqamli xizmatlar sifatini oshirish.

⁹ United Nations Development Programme. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. - Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2025.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Maqsadli ijtimoiy yordam – transfert daromadlari aholi daromadlarining 29,6 foizini tashkil etgani ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Bundan kelib chiqadiki, O'zbekiston sharoitida farovonlikni oshirishning eng samarali modeli iqtisodiy o'sish, innovatsion bandlik, kichik biznes, raqamli xizmatlar va ijtimoiy himoyani yagona strategik tizimga birlashtirishdan iborat.

“O'zbekiston-2030” strategiyasi 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ta maqsaddan iborat bo'lib, unda har bir inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, ekologik barqarorlik, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi va xavfsiz davlat tamoyillari belgilangan.

Inersion rivojlanish. Bu holatda iqtisodiy o'sish saqlanadi, ammo innovatsion natijalar cheklangan bo'ladi. Raqamli xizmatlar kengayadi, biroq hududlar o'rtasidagi farqlar va raqamli savodxonlikdagi tafovutlar saqlanib qoladi.

Faol innovatsion rivojlanish. Bu ssenariyda raqamli iqtisodiyot, startaplar, IT eksporti, texnologik sanoat va kasbiy ta'lim tez rivojlanadi. O'zbekistonning Global Innovation Index reytingidagi 79-o'ringa ko'tarilishi ushbu yo'nalish uchun asosiy imkoniyat sifatida qaraladi.

Inklyuziv innovatsion rivojlanish. Bu eng maqbul ssenariy bo'lib, innovatsion o'sish faqat yirik shaharlar yoki texnologik markazlar bilan cheklanmaydi. Raqamli xizmatlar, kichik biznes, kasbiy ta'lim va ijtimoiy himoya qishloq hududlari, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan guruhlarni ham qamrab oladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l inklyuziv innovatsion rivojlanish ssenariysidir. Chunki bu model texnologik yangilanishni inson kapitali, ijtimoiy adolat va hududiy tenglik bilan uyg'unlashtiradi. Mazkur yondashuvni O'zbekiston sharoitida qo'llash aholi farovonligini faqat makroiqtisodiy o'sish hisobiga emas, balki har bir fuqaroning real iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda aholi farovonligini oshirishda innovatsion yondashuvlar iqtisodiy o'sish, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, kichik biznes va samarali ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liqdir. 2024-yilda real YAIM o'sishining 6,5 foizni tashkil etgani, 2025-yilda esa mamlakatning Global Innovation Index reytingida 79-o'ringa ko'tarilgani innovatsion rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar shakllanayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, farovonlikni oshirish faqat daromadlarni ko'paytirish bilan cheklanmaydi. U bandlikni kengaytirish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish orqali barqaror tus oladi. Ayniqsa, kichik biznes daromadlarining aholi jami daromadlaridagi ulushi yuqoriligi ushbu sohani farovonlikning muhim manbai sifatida baholashga asos bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida eng maqbul yo'l inklyuziv innovatsion rivojlanish modelidir. Mazkur yondashuv texnologik yangilanishni ijtimoiy adolat, inson kapitali va hududiy rivojlanish bilan uyg'unlashtiradi. Bundan kelib chiqadiki, aholi farovonligini uzoq muddatli oshirish uchun raqamli infratuzilmani kengaytirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, innovatsion bandlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini manzilli va samarali tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation. - Washington: IMF, 2025.
3. Mazzucato M. The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. - London: Anthem Press, 2013. - 266 p.
4. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. - Chicago: University of Chicago Press, 1990. - Vol. 98, №5. - P. S71-S102.
5. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. - Cambridge: Harvard University Press, 1934. - 255 p.
6. Sen A. Development as Freedom. - New York: Alfred A. Knopf, 1999. - 366 p.
7. United Nations Development Programme. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. - Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2025.
8. World Bank. Uzbekistan Country Overview. - Washington: World Bank Group, 2026.
9. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2025: Uzbekistan Ranking. - Geneva: WIPO, 2025.